

## ALISHER NAVOIYNING LINGVISTIK QARASHLARI TAHLILI

*Termiz davlat universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish(o'zbek tili)fakulteti*

*3-bosqich talabasi Ne'matova Nilufar*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aks etadigan ma'lumotlar Alisher Navoiy qalamiga mansub “Muhokamat ul-lug'atayn” asari orqali kórsatiladigan lingvistik bilimlar va qarashlar tahlili.Olimning til taraqqiyotiga qo'shgan o'rni va mavqei aks etadi.Shu asnoda, misollar bilan tushuntiriladi.

**Kalit so'zlar:** leksemalar, morfologik birliklar, fonetikbirliklar, komparativistika, onomastika, tushuntirishlar, tahlil.

### **Kirish.**

Ulug' mutafakkir olim,g'azal mulkining sultoni bo'lmish Alisher Navoiyning turkiy tillar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi alohida o'ringa ega.Alisher Navoiy turkiy til rivoji uchun asarlargina yozmay,uning taraqqiyotida nazariy bilimlarni ham keltirib o'tgan siymodir.Navoiyning lingvistik qarashlari asosida tilning nutq va tafakkur bilan aloqadorligi va bir biri bilan uzviy bog'liqlik holatlarini asarlarida keltirib o'tadi.Navoiy asarlarida “til va nutq”ga ta'rif berar ekan, nutq qobiliyatini Allohga ,turli tillarning yuzaga kelishini esa Nuh payg'ambar va uning o'g'illariga bog'laydi.Bu fikrning dalili sifatida “Muhokamat ul-lugatayn” asarida keltirilgan fikrlar yaqqol misol bo'la oladi :

”Mundin so'ngra,uch naf tildurkim asl va mo'tabardur,va ul tillar iborati gavhari birla qoyimning adosiga zevar va har qaysining furui bag'oyat ko'pdur.Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurku,Nuh payg'ambarning uch o'g'lig'akim,Yofas va Som va Homdir etushur.Va bu mujmal tafsili budurki, Nuh alayhissalom to'fon tashviridin najot va aning mahlakasidin hayot topdi, olam ma'murasida bashar jinsidin osor va inson nav'idin namudor qolmaydur erdi. Yofasniki, tavorix ahli Abut-turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul-furs bitirlar Eron va Turon mamolikining vasatida voli qildi va Homniki, Abul-hind debdurlar Hindiston bilodig'a uzatti. Va bu uch payg'ambarzoda avlod va atboi mazkur bo'lg'on mamolikda yoyildilar va qalin bo'ldilar”<sup>1</sup>

Navoiy arab tilini bu tillardan mustasno qilib uni “kalomi ilohiydir”ya'nikim, Allohning kalaomi bo'lgan Qur'oni Karimva payg'ambar so'zlari,hadislar shu tilde yaratilganligi sababli uni boshqa tillardan ulug'roq,go'zalroq degan fikrlarni keltirib

<sup>1</sup> Navoiy, Asarlar [15 j.li], 14- j., T., 1967; Navoiy, Mukammal asarlar to'plami [20 j.li], 16-j., T., 2000.Ergash Umarov.

o'tadi. Navoiyning til haqidagi qarashlarining asosiy g'oyasini ushbu baytda ham korishimiz mumkin:

bayt:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Balkim guhari sharifroq yo'q ondin

baytdan anglashiladiki, til insoniyatga yaratgan tomonidan berilgan, uni hayvondan ajratib turuvchi buyuk bir ne'mat ekanligini sababli yer yuzidagi hayot ulkan ikki sinfga ajratilganini bilishimiz mumkin.

### Asosiy qism.

“Muhokamat ul-lug'atayn” asari so'z san'atining nozikliklari, uning til va tafakkur bilan Navoiy asarida g'oyat badiiy tasvir orqali go'zal ifoda etgan:

“... so'z durredurkim, aning dar'yosi ko'nguldur va ko'ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kuldur. Andoqki, dar'yodin gavhar g'avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig'a ko'ra zohir bo'lur”<sup>2</sup>

Navoiy so'zni gavharga, uning daryosi ko'ngul ekanligini va u idrokning(tafakkur)barcha ma'nolarini o'zida jamlovchi vosita ekanligini ta'kidlaydi. Gavhar g'avvos orqali daryodan chiqarilgach, uning jilvalanishi bilan uning qiymati javharida bo'lgani kabi, ko'ngildan(qalbdan) u so'z “nutq sharifi” sohibining mahorati tufayli ziynatlanadi. Navoiy qarashlaridan ko'rinadiki u tilning ijtimoiyligini, shu bilan birgalikda uning jamiyat taraqqiyotida alohida mavqega egaligini shvetsariyalii tilshunos Ferdinant de Sossyur va germaniyalik olim V, Gumbolt kabi olimlardan avvalroq nazariy qarashlarni asarida ifodalagani buning yaqqol dalilidir.” Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asarini o'qigan fransuz olimi m. Bellin 1861-yilda yozgan o'zining “Mir Alisher Navoiy bibliografiyasi va ijodi” nomli kitobida shunday fikrlarni keltirib o'tgan: “Alisher navoiy o'z milliy tilining afzalliklarini inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan isbot etganlogi-o'z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab berganligidan dalolatdir”<sup>3</sup> kabi fikrlarni ilgari surgan.

### “Muhokamat ul-lugatayn” asari tahlili.

Bilamizki, 1499- yil yozib tugallangan “Muhokamat ul-lug'atayn” asari ikki o'zga tilning ya'ni turkiy va forsiy tillar til sathlarining qiyoslanishiga asoslangan ikki til muhokamasidir. Bu asarni o'rganar ekanmiz XVIII-XIX asrlarda qo'llanilgan tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri komparativistika sohasining tub negazi shu asarga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiy bu asarda ikki tilni qiyoslar ekan turkiy tilining ham forsiy tildan kam emasligini, ba'zi forsiy leksemalarning turkiyda ifodalanuvchi bir necha sinonimik qatorga egaligini va sinonimik qatorning leksik uslub jihatdan bo'yoqdorkigini faktlar asosida 100 ta fe'lni izohlab bergan: Misol uchun:

<sup>2</sup> Navoiy, Asarlar [15 j.li], 14- j., T., 1967; Navoiy, Mukammal asarlar to'plami [20 j.li], 16-j., T., 2000. Ergash Umarov.

<sup>3</sup> Qodirov. P Til va El.- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.-B.3.

“Chun o‘kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz yo‘qtur, forsiygo‘y shoir muningdek g‘arib mazmun adosidin mahrumdur. [3]Yana yig‘lamoqning o‘kurmaki muqobalasida inichkirmak dag‘i bor va ul inchka un bila yig‘lamoqdur va ul turk lafzida bu nav‘ tarkib bila ado topibdurkim,

Bayt:

Charx zulmidaki, bo‘g‘zumni qirib yig‘larmen,  
Igirur charx (urar) inchkirib yig‘larmen.

Ammo yig‘lamoqta hoy-hoy lafzin (adoda) o‘zlarin turkiygo‘ylarga sharik qilibdurlar va bu lafz ham aslan turkiy uslubdur, va faqirning bu maqtai mashhurdurkim,

Bayt:

Navoiy ul gul uchun hoy-hoy yig‘lama ko‘p,  
Ki he deguncha ne gulbun, ne g‘uncha, ne gul bor!

Asarda hozirgi tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo‘lgan onomastikaga oid qarashlarini ham korishimiz mumkin. Misol uchun Navoiy oz asarida qarindosh-urug‘chilik otlarining turli xilda nomlanishi, har biri alohida ma‘noni anglatuvchi birliklar bo‘la olishi, milliy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq oddiy bosh kiyimining (do‘ppi) turli xilda turkiy tilda nomlarga egaligi keltirgani asl faktlardir.

“Va uluq qardosh va kichik qardoshni ikkalasin «brodar» derlar va turklar ulug‘ni — «og‘a» va kichikni «ini» derlar, va alar ulug‘, kichik qiz qardoshni ham «xohar» derlar. Va bular ulug‘ni — «egachi» va kichikni «singil» derlar. Va bular otaning og‘a-inisin «opag‘a» derlar. Va onaning og‘a-inisin — «tag‘oyi» (derlar). Va alar hechqaysig‘a ot ta‘yin qilmaydurlar va arab tili bila "em" va xol derlar va ko‘kaltoshni turkcha til bila derlar”<sup>4</sup>

Navoiyning morfologiyaga oid qarashlari orqali so‘z yasovchi vositalar va yasalmalarni asarda keltirilib o‘tgan. Ko‘rishimiz mumkinki asarda forsiy tilda uchramaydigan ba‘zi grammatik shakllar turkiy tilda mavjudligi, harakatni bir necha kishi tomonidan amalga oshirilishi forsiy tilda so‘z birikmalar orqali ifodalanishini keltirib o‘tgan. Shu bilan birga u turkiy tilning imkoniyatlarini teran fikrlar orqali misollar asnosida isbotlab bergan.

Masalan turkiy tilda ba‘zi fe‘llarga “sh” harfini qo‘shish orqali birgalik nisbati yuzaga kelishini;

-...arab tilining sarfiy istilohining abvobida bir bobdurki, anga — mufoala bobi ot qo‘yupturlarki, lafz bir mazkur bo‘lur, ammo ikki kishi fe‘lig‘a mushtamildurki, bir nav‘ voqi‘ bo‘lg‘ay. Andoqki, «muoraza» va «muqobala» va «mushoara» va «mukolama» va kulliy bobdur va munda azim favoid hosil. Va forsiygo‘ylar muncha fasohat va balog‘at da‘vosi bila bu foydadin mahrum. Ammo turk bulag‘osi bu foydag‘a taarruz qilibdurlar. Va masdarg‘a bir «Shin» harfi ilhoq «ilmoq bila ul

<sup>4</sup> Navoiy, Asarlar [15 j.li], 14- j., T., 1967; Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami [20 j.li], 16-j., T., 2000. Ergash Umarov

maqsudni topibdur. Andoqki, «chopishmoq» va «topishmoq» va «quchushmoq» va «o‘pushmak» va bu shoyi’ lafzdur”.

-ba’zi fe’llarga “t” harfini qo’shish orqali orttirma nisbat yasash mumkinligi;

“arabiy sarf istilohda ikki maf’ulluq fe’llar borki, aning adosi dog‘i mu’tabar va kulliydur. Andin dog‘i sortlar oriy qolibdurlar. Va atrok anga ham xo‘broq vajah bila mutobaat qilibdurlar. Arabiy andoqki, «A’taytu Zaydan dirhaman», bu tarkibda uch lafz mazkur bo‘lur. Alar lafzg‘a bir harf orturg‘on bila munga o‘xshash bir zamirni orturubturlar, bag‘oyat muxtasar va mufid tushubtur. Andoqki, yugurt va qildurt va yashurt va chiqart”.

-ba’zi otlarga “ch”, “T”, “-ki”, “-chi” qo’shimchasini qoshish orqali kasb-hunar otlarining yasalishi;

“Yana bir adolari borki, ba’zi alfozning so‘ngg‘ida «ch, i» ki, «chi» lafzidur, ortturlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo‘qtur, balki alar ham turkcha ayturlar. Mansabda andoqki, qo‘rchi, va suvchi va xizonachi va kerak-yarog‘chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi va axtachi yo‘sunlug‘ ko‘ptur”.

-sifatning orttirma darajasini ifodalash uchun “p” “m” harflarini qo’shish orqali ma’no kuchayshi;

“Va yana bir rang yo bir sifatning shumuli xolig‘a mubolag‘a uchun aning avvalida avval harfig‘a bir «p» yo «mim» izofa qilib, ul shay’g‘a zoid qilurlar; «p» misoli: opoq qap-qaro, qip-qizil, sap-sarig‘, yup yumaloq, yap-yassi, opochug‘, chup-chuqur, bu nav’ xili ham topilur, «mim» misoli: ko‘m-ko‘k, yam-yashil, bo‘m-bo‘z”kabilarni ko‘rishimiz mumkin.

Bu asarda yana bir ajralib turuvchi jihati hozirgi kunda turg‘un holatda uchrovchi ba’zi leksemalarning bu asarda harbiy va saroy lavozimlarini bildiruvchi shaxs otlari yasalganligini uchratish mumkin:

“Yana bir «vov» va «lom» ba’zi lafzg‘a ilhoq qilib bir maxsus sifatqa ta’yin qilurki, salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun mu’tabardur[56]. Andoqki, hirovul, qarovul va chingdovul va yankovul va so‘zivul va patovul va kitpovul va yasovul va bakovul va shig‘ovul va daqavul kim, alar mundin ulviydurlar”.

### Xulosa.

Xulosa o‘rnida aytish joizki Navoiy asarlari orqali jonli xalq tilining tarqoqligiga barxam bergan holda bir adabiy tilda umumlashtirishi bilan turkiy tilning ravnaq topishida katta hissa qo’shgan deyishimiz mumkin. Navoiyning eng buyuk xizmatlaridan biri bu birinchilardan bo‘lib “til” va “tafakkur” va “nutq”ni tahlil etib, aniqlik kiritgan. Ikki tilni xolisona qarashlar bilan tahlil qilib turkiy tilning ham forsiy til kabi go‘zalligini so‘zlarda ma’nolar ko‘lamining keng ekanligini va bu tilda ham yuksak badiiy asarlar yaratish mumkinligini isbotlay olgan. Shu bilan birgalikda bu asari orqali stilistika sohasining yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Navoiy, Asarlar [15 j.li], 14- j., T., 1967; Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami [20 j.li], 16-j., T., 2000.Ergash Umarov.
2. Q.Sodiqov “Turkiy til tarixi”Toshkent-2009
3. X.A.Dadaboyev,Z.T.Xolmanova "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi""Tafakkur bóstoni" Toshkent -2015
4. Y.Saidov "O‘zbek adabiy tili tarixi" “Durona”nashriyoti.Buxoro-2019